

ABDULLA QAHHOR “DAHSHAT” HIKOYASINING PRESUPPOZITIV TAHLILI

Zaylobiddinova Mohtoba Sherzod qizi

O‘zMU O‘zbek filologiyasi, I bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda pragmalingvistika sohasining muhim tushunchalaridan biri bo‘lgan presuppozitsiya hodisasi haqida so‘z yuritildi. Presuppozitsiya hodisasi haqida nazariy ma’lumotlar keltirildi hamda Abdulla Qahhor hikoyalarida presuppozitsiya hodisasining qo‘llanilishi ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: pragmalingvistika, presuppozitsiya, leksik presuppozitsiya, faktiv presuppozitsiya, kontrfaktiv presuppozitsiya, mantiqiy presuppozitsiya, strukturaviy presuppozitsiya, semantik prezumpsiya, pragmatik prezumpsiya.

Pragmalingvistik tahlilning asosiy tushunchalaridan biri presuppozitsiyadir. Tilshunoslikka kirib kelgan presuppozitsiya termini presuppozitsiya termini ham pragmalingvistikaning tahlil tayanch tushunchalaridan hisoblanadi. Presuppozitsiya tushunchasi, dastlab, falsafada yuzaga kelgan bo‘lib, G. Frege uni olmiy amaliyotga kiritgan, keyinchalik presuppozitsiya lingvistikaga kirib keldi va Ch. Filmor, A. Svika, G. Gabriel, J. Lakoff, N. Xomskiy va boshqa bir qator olimlar tomonidan o‘rganildi va o‘rganilmoqda¹.

Presuppozitsiya hodisasini tadqiq etishdan oldin, presuppozitsiya atamasining lug‘aviy ma’nosini ko‘rib chiqamiz. Presuppozitsiya termini lotincha sub – osti, tagi va ponere – joylashtirmoq, joylashmoq kabi ma’nolarni bildiradi². Presuppozitsiya atamasiga juda ko‘p olimlar tomonidan turlicha ta’rif berilgan. Jumladan, bu atama G. Frege tarifida “gapda ifodalangan hukmning tabiiy asosi” deya ifodalansa,

¹ Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O‘TA.1986.N:6. – B.28.

² Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi.nomzodlik diss. – Samarqand, 1994, - B.2.

I.D.Arutyunova uni “bilishning umumiy xazinasi” deb izohlaydi, G.V. Naducheva esa “oldindan bilishning jami” kabi ta’riflar bilan keltiradi.

O’zbek tilshunosligida A. Nurmonov, N.Mahmudov, M.Hakimov, Z.Burhonov, U.Rahimov kabi olimlar presuppozitsiya bo‘yicha bir qancha ishlar qilishgan. Presuppozitsiyada barcha uchun tushunarli bo‘lgan propozitsiya haqida gap ketadi. Ya’ni propozitsiya jumlalarning ma’nosi barchaga tushunarli bo‘lishi mumkin, ammo, presuppozitsiya hammaga aniq bo‘lavermaydi. Jumladan, “....nutqiy kommunikatsiyaning to‘g‘ri va real amalga oshishi uchun kommunikantlar nutq momentiga qadar muayyan faktlar bilan tanish bo‘lishi, umumiy vaziyat bilan bog‘liq muayyan bilim – xabardorlikka ega bo‘lishlari lozim. Ana shu faktlar, bilimlar tilshunoslikda presuppozitsiya nomi bilan umumlashtiriladi¹.

Tilshunos olim A. Nurmonov ushbu pragmatik terminni “...presuppozitsiya logik va semantik tushunchalar bo‘lib, logika va sintaktikaning o‘rganish obyekti”dir, ...sintaktik konstruksiyalarda propozitsiyalarning biri shu suppozitsiya orqali anglashiladi² deya ta’riflaydi. Shuningdek, tilshunosning fikricha, “...sodda gap tarkibidagi ayrim so‘zlar va grammatik shakllar ham alohida presuppozitsiya ifodalab, shu sodda gapni semantik murakkablashtirilishi mumkin³.

Olimlar tomonidan presuppozitsiya turlicha tasniflanadi. Jumladan, E.V.Paduchevaning tadqiqotlarida ikkiga bo‘lingan: 1) semantik prezumpsiya; 2) pragmatik prezumpsiya.

V.G.Gak tasniflarida presuppozitsiyaning uch turini ko‘rishimiz mumkin: 1) keng presuppozitsiya; 2) tor presuppozitsiya; 3) lingvistik presuppozitsiya. Keng presuppozitsiya – borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi umumiy bilim bo‘lsa, tor presuppozitsiyada ma’lum bir vaziyatda sodir bo‘layotgan nutqiy hodisa mavzusi nazarda tutiladi. Keng presuppozitsiyada nutq vaziyati umumiy bilim asosida olinadi,

¹ Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O’TA. – T, 1986. N:6 - B. 28.

² Nurmonov A.Ko‘makchili konstruksiylar presuppozitsiyasi.// O’zbektili va adabiyoti. – T.,1986. N:6. B.42.

³ Ernazarova M.S. Grammatik ma’no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida. Filol.fanlari dokt.(DsC) dissertatsiyasi avtoref. – Samarqand, 2018.

tor presuppozitsiyada esa nutq mavzusi torayadi. Lingvistik presuppozitsiya esa kognitiv bilimni ma'lum til qoidalari asosida ifodalanishi, til haqidagi bilimidir.

N.A.Toropova tasnifida presuppozitsiya zidlanuvchi a'zolar presuppozitsiyasi va kuzatilgan presuppozitsiya kabi ikki guruhga ajratilgan. Presuppozitsiyaning bir qancha tasnifini G.Yul ishlarida ham ko'rishimiz mumkin: 1)ekzistensial presuppozitsiya; 2) faktiv presuppozitsiya; 3)nofaktiv presuppozitsiya; 4) leksik presuppozitsiya; 5)strukturaviy presuppozitsiya; 6) kontrfaktiv presuppozitsiya¹. E.Kinen presuppozitsiyani ikki turga: amaliy presuppozitsiya va mantiqiy presuppozitsiyaga ajratadi². Unga ko'ra, amaliy presuppozitsiyada so'zlovchining egallagan bilimi nazarda tutilsa, mantiqiy presuppozitsiyada propozitsiyalar o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlik nazarda tutiladi.

O'zbek tilida presuppozitsiyani ifodalovchi grammatik vositalarni M. Xujamqulova quyidagicha ifodalagan:

- a) Leksik vositalarning fakultativ ma'no komponentlari;
- b) *Hatto, faqat, yolg'iz, -gina, ham, tag'in, yana* yuklamalari;
- c) *Bo 'lsa, esa* bog'lovchi vositalari;
- d) *Tashqari, boshqa, o'zga, bilan birga, o'rniga* ko'makchilar

Pragmatikaning asosiy vazifalaridan biri, tilshunoslikning yangi sohasi sifatida nutq subyektining ichki maqsadi bilan bog'liq yashirin propozitsiyalar va ulardagi presuppozitsiyalar (voqelikning bayon qilinishi va uning yashirin, ichki imkoniyatlarini) tadqiq etadi. Masalan, *Unsin yana o'tin qidirdi, lekin har safar o'tin qalaganida alanganing gurkirashi, chirsillashi mudrab yotgan arvochlarni uyg'otib yuborishidan qo'rqqandek, uning ustiga o'zini tashlaguday bo'lar edi.* (A. Qahhor "Dahshat") Bunda yashirin presuppozitsiya mavjud (*Unsin oldinroq ham o'tin qidirayotgan edi*). Propozitsion nutqda yashirin, ichki maqsadni ochib berishga yordam beradi. Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko'nikmalari bilan bog'liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyat bo'lib,

¹ Yule U.pragmatics. – Oxford: OxfordUniv. Press, 1996. P.30.

² Keenan E. Two kinds of presupposition in natural language. – In: Studies in linguistic semantics,ed. By Ch. Fillmore and D.Langendoen. N.Y, 1971. – P. 45-52.

mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslangan ko‘rishi hisoblanadi. Demak, lingvistik presuppozitsiyani gapda lisoniy vositalar ishorasi asosida yashirin ifodalanuvchi axborot tarzida baholanishi asosli¹.

Gaplarni pragmatik tahlil qilishda gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari ham muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, darak gaplarni pragmatik tahlil qilishda presuppozitsiya tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xabar mazmunidagi birgina propozitsiyadan iborat bo‘lgan sintaktik qolip nutqda jonlanganda adresat va adresantga ma’lum bo‘lgan bir nechta informatsiyani anglatishi mumkin.

Presuppozitsiyalar vositasidagina ayni gap tiplarining semantikasi va kommunikativ qimmatini konkret va haqqoniy baholash mumkin². Presuppozitiv jihatdan, ayniqsa, darak gaplar va ritorik so‘roq gaplarning presuppozitsiyasi mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘ladi.

Har bir propozitsiyada birdan ortiq prezuppozitsiya mavjud bo‘ladi va bu presuppozitsiyani yuzaga chiqarishda grammatik vositalar yordam beradi. Masalan, *Endi Unsinni tilab olish uchun biron so‘z aytishga hech kim, hatto go‘ristondan uning o‘ligi kelishiga ko‘zi yetib, ichida faryod chekayotgan Nodirmohbegim ham jur’at qilolmay qoldi.* (A.Qahhor “Dahshat”). Uning propozitsiyasi: Nodirmohbegimdan boshqalar ham bor, ular ham faryod chekayotgan edi. Ham yuklamasi orqali qo‘sishimcha mazmun anglashilmoqda.

Presuppozitsiya gap tashqi strukturasida moddiy ko‘rinishni to‘liq namoyon qilmaydi. Ammo uning tashqi signallari – ishora vositalari, tabiiyki, sintaktik strukturadan o‘rin oladi³. Matndagi propozitsiyani mantiqiy tahlil qilish asosida presuppozitsiyani aniqlab olish mumkin bo‘ladi.

Darak mazmunini ifodalayotgan soda gap Grammatik jihatdan tahlil qilinganda, bitta xabar, ma’lumot beradi (har bir sodda gapda bitta ma’lumot anglashiladi.) Masalan, *Nihoyat qumg‘on qaynadi.* (A.Qahhor “Dahshat”) Ushbu

¹ Burxonov Z. O‘zbek tilida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi. Filologiya fanlari nomzodlik dissertasiyasiga avtoreferati. – Toshkent, 2008.

² Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O‘zbek tili va adabiyoti. – T, 1986. N:6. – B. 28-42.

³ Burxonov Z. B. O‘zbek tilida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi. Filol.fanlari d-ri. Avtoref. – T, 2008.

misolni presuppozitiv tahlil qilaylik. Presuppozitiv tahlilida ushbu darak gap zamirida bir qancha botiniy ma’no ifodalanadi: 1. Qumg‘onni qaynashi ancha qiyin bo‘ldi. 2. Qumg‘on qaynashi uchun ancha vaqt ketdi.

Presuppozitsiyani aniqlashda, shuningdek, uning strukturasi ham muhimdir. Kommunikativ birliklarning bu jihatlarini aniqlashda lingvistik vositalarning bir qancha turlari, jumladan, lingvistik vositalar va sintaktik vositalar doirasida amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda, presuppozitsiyaning tasnifi va u haqidagi nazariy qarashlar turli olimlar tomonidan turlicha tadqiq etilgan bo‘lsa-da, deyarli barchasi presuppozitsiyada lisoniy birliklarning ahamiyatini alohida qayd etib o‘tgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xujamqulova M.B. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent – 2022
2. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. O‘TA.1986.N:6. – B.28.
3. Rahimov U. O‘zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi.nomzodlik diss. – Samarqand, 1994, - B.2.
4. Nurmonov A.Ko‘makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi// O‘zbektili va adabiyoti. – T.,1986. N:6. B.42.
5. Ernazarova M.S. Grammatik ma’no lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida. Filol.fanlari dokt.(DsC) dissertatsiyasi avtoref. – Samarqand, 2018.
6. Burxanov Z. B. O‘zbek tilida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi. Filol.fanlari d-ri. Avtoref. – T, 2008.
7. Abdulla Qahhor “Dahshat” hikoyasi. Internet tarmog‘idan www.ziyouz.com